

QORA ALVASTINING SOVG‘ASI

(Polyak xalq ertagi)

Bor ekan-u, yo‘q ekan, qaysidir qishloqda bir kambag‘al dehqon bo‘lgan ekan. U nechog‘li jon kuydirib mehnat qilmasin, loaqal oilasining qornini to‘yg‘aza olmas ekan. Shu sabab qo‘shnilari dehqonga «Sho‘rpeshona» deb laqab qo‘yishgan ekan.

O‘sha sho‘rpeshonaga otasidan bir parchagina yer meros qolibdi. Yer bo‘lgandayam qanaqasi deng? Chap tomoni botqoqzor, o‘ng tomoni qumloq bo‘lib, unda hatto yulg‘un ham o‘smas ekan. Faqat o‘rtasida bir parchagina yer bo‘lib, u ham boshdan oyoq o‘ydim-chuqur, toshloq ekan. Bunday yerdan hosil undirishga yo‘l bo‘lsin!

Qaysidir kuzda dehqon o‘sha bir parcha yerni haydab, don sepmoqchi bo‘libdi. Qo‘shdag‘i oti och-arvoh, tumshug‘i yerga tekkudek bazo‘r odimlar, omochning tishi toshlar orasida g‘ichirlarkan. Dehqoning peshonasidan xuddi chilladagi jaziramadagiday to‘xtovsiz ter quyilarkan. Osmondan esa maydalab sovuq yomg‘ir sevalar, sira havo ochilay demas ekan.

Sho‘rpeshona yer haydagandan haydaveribdi. Nihoyat och-nahorlikdan sillasi quribdi. Picha nafas rostlab, qo‘ynidagi nondan tatisa bo‘lardi-ku.

«Yo‘q, — debdi u o‘ziga o‘zi. — Tushgacha hordiqsiz ishlay qolaman».

Ilik baquvvat bo‘lmasa ish ham yurishmaydi-da. Dehqoning sillasi qurib, qorni karnay chala boshlabdi. Sal naridagi na‘matak butasi esa dam olishga undaganday, yomg‘irdan boshpana bo‘laman deyotganday bo‘laveribdi. Dehqon qo‘sh haydashdan to‘xtab, qo‘ynidagi nonni olibdi-da, unga tikilib qarabdi, bir-ikki hidlab ham qo‘yibdi. «Bir tishlam yeb olsammikin? — degan fikr kechibdi xayolidan. — Asl non-da o‘ziyam, biroz suvi qochganrog‘-u, ammo rosa xushbo‘y- Lekin hali kun erta, tushgacha ancha vaqt bor... Hozir nonni yeb qo‘ysam, kechgacha qornim ochib qoladi, yoq, sabr qilganim ma’qul. Yaxshisi, nonni uvatga — buta ostiga qo‘yib qo‘yay» qo‘ynimda bo‘lmasa esimga ham kelmaydi».

Non kuz havosida namiqib qolmasligi uchun dehqon uni latta bilan o‘rabdi-da, chuqur xo‘rsinib buta ostiga berkitib qo‘yibdi. Sho‘rpeshona nigohini to‘g‘riga tikkanicha, so‘l tomondagi qumloqqa ham, o‘ngdagi botqoqzorga ham qaramasdan qo‘sh haydar ekan.

Botqoqlikning nariyog‘i qo‘rqinchli joy bo‘lib, u yerda tumonot alvasti makon qurgan ekan. Yashil Alvasti odamlarni o‘z saltanatiga tortmoqchi bo‘larkan. U beso‘naqay panjalari bilan g‘ildiraklarga chang solsa, arava o‘qi baravar botqoqda botarkan. Yoki Yashil Alvasti shalrang quoqlarini lapanglatib, otlar ro‘parasiga sakrab chiqar, otlar jonholatda chetga sapchib, aravalar ag‘anab parcha-parcha bo‘lar, dahshatdan esxonalari chiqib ketgan odamlar tun bo‘yi botqoqzordan chiqolmay yo‘l axtarib tentirar ekanlar.

O‘sha dahshatli makonda Moviy Alvasti ham in qurgan ekan. U daryo va irmoqlar orqali botqoqzordan ko‘llarga suzib chiqarkan. Goh to‘g‘onlarni buzib yuborarkan-da, tegirmonlar yurmay qo‘yarkan. Qizil Alvasti odamlar orasida botqoq bezgagini tarqatarkan. Ammo alvastilar orasida eng dovyuragi Qora Alvasti ekan. U bemalol, kuppa-kunduzi atrofdagi dalalarda shataloq otib yurar, biror zarar yetkazish, xatar qo‘zg‘atish maqsadida xonadonlarga bostirib kiraverarkan.

Mana, bugun ham Qora Alvasti botqoqlikdan chiqib, o‘zini na‘matak butasi ortiga olibdi. U sovuq ko‘zlarini chaqchaytirib, atrofga alanglar, biron-bir ishkal chiqarmoqchi bo‘lar ekan. Bir vaqt qarasa, nariroqda bir dehqon qo‘ymdan non olib, tevarakka sergak ko‘z yogurtiribdi-da, nonni lattaga o‘rab, buta ostiga yashiribdi, so‘ng yer haydashga kirishib ketibdi.

Dehqon sal uzoqlashishi bilan Qora Alvasti shartta nonni changallab butalar orasiga sho‘ng‘ibdi va bu yog‘i nima bo‘lishini kuta boshlabdi. Hali zamon dehqon non yo‘q bo‘lib qolganini ko‘radi-da, jig‘ibiyroni chiqadi, non o‘g‘risini, hoynahoy alvastilarni ham la’natlاب qarg‘aydi, deb o‘ylabdi. Zap tomosha bo‘ladi-da!

Shu payt quyosh bulut ostidan chiqib, borliqqa nur sochibdi, nam yer ustida daraxt va butalarning kalta-kalta soyalari paydo bo‘libdi.

Dehqon kaftini ko‘ziga soyabon qilib ko‘kka boqibdi-da, yengil xo‘rsinib qo‘yibdi: xayriyat tush bo‘libdi, endi jindek tamaddi qilib olsa bo‘ladi. U ot ni paykal chetiga olib chiqib, o‘tlagani qo‘yibdi, o‘zi bo‘lsa non yashirilgan buta tomon yo‘nalibdi.

Dehqon buta ostini qarasa, non yo‘q, faqat latta oqarib ko‘rinib turganmish. U ko‘zlariga ishon- mabdi. Ajabo, bu qanaqasi?

-Kim o‘marib ketgan bo‘lishi mumkin nonni? Yemishsiz qoldimmi men bechora? Menden ham ochroq birortasi o‘tib ketayotib ko‘zi tushgan bo‘lsa, olgandir-da. Mayli, osh bo‘lsin! — debdi.

Qora Alvasti qattiq hayratga tushibdi:

-Ana xolos! Koyinib so‘kinmadiyam-a, alvastilarni la’natlamadi-ya! Demak hech qanday ko‘ngil-xushlik chiqmadi hozirgi qilmishimdan. Qora Alvasti buta ostiga bir-ikki tishlam non tashlab qo‘ymoqchi bo‘libdi-yu, shu zahoti bu fikrdan qaytibi: qaysi alvasti odamlarga shavqat qilgan? Qing‘irlikka bel bog‘ladingmi, oxirigacha yetkaz. Alvastilarning ham o‘zlariga yarasha himmatlari bor.

Qora Alvasti badxohlik bilan kulibdi-da, tuyoqlari bilan yer tirnab bir-ikkidepsinib qo‘yib, shoxlarini silkita-silkita botqoqlik sari yelib ketibdi.

Botqoqlikning odam qadami tegmagan qalin qamishzor-u qavat-qavat baqato‘ndan iborat eng to‘rida nuqul ins-jinslar rahnamosi — Suvjin makon qurgan ekan.

Suvjin majnuntol novdalaridan to‘qilgan taxti-ravonda yalpayib mudrab o‘tirarkan: uni kuzgi oftob elitgan bo‘lsa kerak. Egniga shakarqamishdan to‘qilgan bashang chakmon, taqir boshiga qamish chambar kiyib olgan, yuzi yashil tusda tovlanarkan. Gavdasi beso‘naqay, xo‘ppa semiz ekan.

Suvjin barcha qo‘l ostidagilarni qing‘irlik qilgani, soddadil odamlarni qaqqhatgani chor-atrofga yo‘llagan ekan.

Qora Alvasti Suvjin qarshisiga kelib goz turib- di. Suvjin bir ko‘zini ochib so‘rabdi:

-Nima yumush bilan kelding?

-Bir kambag‘alning nonini o‘margandim, — g‘o‘ldirabdi Qora Alvasti, — rosa jij‘ibiyron bo‘lib, bizlarni qarg‘asa kerak, deb o‘ylovdim...

-Xo‘sh, nima bo‘ldi? — sergaklanibdi Suvjin. — Qarg‘adimi?

-Yo‘q. Nonni yeganni duo qildi.

-Duo qildi deysanmi? — Beso‘naqay kallasini chayqabdi Suvjin. — Hoynahoy, ombori to‘la don bo‘lsa kerak-da uning. Arzimagan nonga ham xunobi osharmidi?

-Ombori qayoqdan to‘la bo‘lardi? Qishloqdagi eng kambag‘alning kambag‘ali u. Endi oqshomgacha ham yegulik hech vaqosi yo‘q.

Bu gapni eshitib Suvjin qovog‘ini uyibdi-da, o‘shqirib beribdi:

-Voy yaramas-ey, nima, ins-jinslarda ham nafsoniyat borligini unutdingmi? Kambag‘al bir bechoraning oxirgi burda nonini o‘marib keldingmi hali? Boylarning sandig‘iga kirish qiyin-da, a? Qanday sharmandalik! Kambag‘allarni boylar qaqqhatgani yetmasmidi. Hoziroq izingga qaytib borib, nonni qayerdan olgan bo‘lsang, o‘sha joyga qo‘yib kel.

-Bu buyrug‘ingizni bajara olmayman, — zorlanibdi Qora Alvasti. — Non ushoq-ushoq bo‘lib maydalanib, qushlar yeb tugatdi.

Suvjin burnini chimdigan ko‘yi xayolga cho‘mibdi.

-Nonni joyiga eltib qo‘yolmasang, xizmat bilan yuv aybingni. Kambag‘al dehqonning korandas bo‘lib, uch yil tekinga xizmatini qil. Ungacha ko‘zimga ko‘rinma!

Iloj qancha, Suvjin gapini ikki qilganlarni yoqtirmas ekan. Qora Alvasti botqoqlik to‘rini tark etib, dehqon huzuriga shoshilibdi.

Bu payt quyosh o‘rmon ortiga cho‘kib, dehqon ochdan och uyi tomon yo‘l olibdi.

U oyoqlarini bazo‘r bosar, oti ham chalisha-chalisha odimlar, omoch duch kelgan narsaga taraqa-turuq urilib borarkan. Omochni ko‘tarib olish uchun esa mador yo‘q. Ochlik dam sayin qiyarkan.

Shu asno kambag‘al dehqonning oldiga notanish bir yigit yaqin kelibdi. Uning ko‘zlar o‘rmon ko‘liday ko‘m-ko‘k, sochlari qarg‘a qanotlariday qop-qora, murti endigina sabza urgan, yuzlaridan qon tomib turganmish.

Dehqon yigitning ko‘rinishiga mahliyo bo‘lib qolibdi, ammo uning nigohidan noxushlikni dehqon payqabdi.

Notanish yigit omoch dastasidan tutib gap qotibdi:

-Keling, xo‘jayin, ko‘maklashib yuboray sizga!

Notanish yigit bir hushtak chalgan ekan, hozirgacha oyog‘ini bazo‘r sudrab bosayotgan ot birdan tetiklashibdi-da, qattiq kishnab uy tomon yelib ketibdi. U xuddi yangi tug‘ilgan qulunday gijinglarkan. Dehqon hayratdan dong qotib qolibdi.

-Meni korandalikka oling, — deb iltimos qilibdi yigit.

Dehqonning battar boshi qotibdi.

-Kambag‘al dehqonnikida koranda bo‘lib nima ham naf ko‘rarding? Bola-chaqamni zo‘rg‘a boqayapman-ku, senga pul topib bera olarmidim...

Bu gapga yigitning javobi qisqa bo‘libdi:

-Menga sariq chaqa ham pul kerak emas. Yo‘q demang, keyin xursand bo‘lasiz.

Yigitning qattiq yolvorishidan dehqon hatto bir oz cho‘chiy ham boshlabdi. Xudo bilsin bu qanday odam bo‘lsa! Tag‘in bir jazodan qochib yurgan qaroqchi bo‘lsa-chi? Haydab yuborsam, o‘ch olishi ham mumkin. Ke, ranjitmay qo‘ya qolay, debdi o‘zicha dehqon.

-Mayli, bir hafta tura qol menikida, bir-birimizga ma’qul bo‘lsak, umrbod uyimda qolsang ham ehtimol.

Shunday qilib, Qora Alvasti dehqonning korandasini bo‘libdi. U avvalambor otni parvarishlashga kirishibdi: qashlag‘ich bilan qashlabdi, yemishlikka asil nav sulidan topib kelibdi, buloq suvida sug‘oribdi. Yigit sulini qayerdan olganini dehqon bilmas ekan.

Oradan bir hafta o‘tar-o‘tmas ot butunlay o‘zgarib, et qo‘yibdi. Yunglari yaltillab, yollar hurpayibdi. Odimlashi ham ko‘rkamlashibdi. Qo‘shda charchash nimaligini bilmas, aravaga qo‘shsa ko‘kka sapchirkан.

Dehqonning qo‘ni-qo‘shnilari hech narsaga tushunmay qolishibdi. Qayerdan ola qolibdi bunday otni dehqon? Sotib olguday bisoti ham yo‘q edi-ku? Ayirboshladi desa, o‘sha tirtig‘i otida. Qari qirchang‘isiga kimning ham ko‘zi uchib turibdi. Taajjub! Biror qing‘irlik yo‘qmikin bunda?

Koranda yigit otdan so‘ng sigir bilan shug‘ullana boshlabdi. Govmishga oqshomlari ham o‘t tashibdi. Sigir yaylovdan to‘yib qaytganida yelini tars yorilgudek bo‘larkan.

Dehqonning bola-chaqasi to‘yib sut ichishganidan yuzlariga qon yugurib, badanlariga jir bita boshlabdi. Qiyqirib kuladigan bo‘lib qolishibdi.

«Mehnatkish, halol yigit ekan, — deb qo‘yarkan ichida dehqon. — Nonni o‘n karra halollab yeypatti».

-Menikida korandalik qilib yuraver, — debdi dehqon Qora Alvastiga — uyimdagi larga yoqib qolding.

Qora Alvastining dimog‘i chog‘ bo‘libdi. Dehqonga yoqmasa, ahvoliga maymunlar yig‘larkan. Suvj inning buyrug‘i bajarilmasa aslo kechirmaydi. Ins-jinslarning jazosi beshofqat bo‘ladi!

Oradan kunlar, oylar o‘tibdi, bir kuni koranda yigit dehqonga qarab shunday debdi:

-Yer haydash payti bo‘ldi. Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda.

Dehqon bu gapga quyidagicha javob qaytaribdi:

-Yerni haydab, arpa sepib qo‘ygandim. Qolgan ozroq yer kartoshkaga.

-Huv anovi botqoqlik yonidagi bo‘lak sizning yeringiz emasmi?

-Menikilikka menikiku-ya, lekin nafi yo‘q yer u, — debdi xo‘rsinib dehqon, — ekinga yaroqsiz.

-Men bir haydab ko‘ray bo‘lmasa.

-Ot urinib qolsa kerak.

-Urintirmayman. Urug‘likni ham o‘zim topaman.

Dehqon rozi bo‘libdi. Mayli, bilganini qilsin. O‘ziki shuni istasa, nima ham derdim. Urug‘likni ham o‘zim topaman deyapti.

Qora Alvasti zax yerni epaqaga keltiribdi. Tunda narigi qishloqliklarning don omboridagi urug‘liklarni sezdirmay o‘maribdi, kalamushlar tortib ketgan g‘allani ham inlariga kirib olib chiqib bir joyga to‘plabdi. Nuqul sara urug‘lik ekan bari. Yigit donni yangi haydalgan paykalga sepib chiqbidi.

Buni ko‘rib qo‘ni-qo‘shnilar qotib-qotib kulishibdi.

-Voy xomkalla-ey! Botqoqlikka don sepihti-ya. Loaqlal baqa go‘ngi sepsa, baqalar urchirmidi?

Qo‘shnilar kalaka qilishayotganini ko‘rib dehqon qattiq mulzam bo‘libdi. Koranda yigit bo‘lsa parvo qilmasmish.

Qish kelibdi. Yerlar toshday muzlabdi. Qish o‘rmini bahor egallab, havo ilibdi. Yoz esa juda issiq kelibdi. Yaqin yillarda yoz bunday issiq bo‘lmagan ekan. Odatda yog‘adigan yomg‘irdan darak yo‘q emish, paykallar tors-tors yorilib, o‘tloqlardagi ko‘katlar sarg‘ayib, qizigan tuproqqa qadam bosib bo‘lmasmish, g‘alla boshoqlari ma’yus egilibdi.

Dehqonning botqoqlikdagi bug‘doy poyalari bo‘lsa zich, boshoqlar to‘q, baquvvat ekan. Vaqt-soati yetib, g‘alla o‘rib olinibdi. Bug‘doymisan bug‘doy yetilganmish o‘ziyam. Hosil chunonam mo‘l bo‘libdi-ki, yejish va urug‘likdan tashqari, bir qismini bemalol sotsa ham bo‘larkan. Dehqon bug‘doyni baland narxda pullamasa ham, harqalay, ozmi-ko‘pmi g‘amlab qo‘yganmish.

Dehqon korandadan ham hayiqar, ham hurmat qilarkan. Yigit bo‘lsa parvoyi palak mehnat qilishda davom etaveribdi.

Nihoyat, yer haydash muddati kelib, koranda dehqonga qarab debdi:

-Bu yil qumloqni shudgorlaymiz.

-Qumloqni? Axir u yerda avval-azaldan hech vaqo unmaydi-ku.

-Men undiraman-da, xo‘jayin.

Dehqon e‘tiroz bildirib o‘tirmabdi, zero u yigitning uddaburon, har narsaga qodirligini endi yaxshi bilarkan. Dehqon bilan koranda ikkovlashib qumloqni haydashga kirishganini ko‘rib qo‘ni- qo‘shnilar tag‘in tizzalariga urib kula boshlashibdi.

Qumloq haydalib don sepilibdi, barona qilinibdi, bu yog‘iga kutish qolibdi, xolos.

O‘scha yili yoz seryomg‘ir kelib, biror kun havo ochiq bo‘lmabdi, oftob chiqmabdi. Uzluksiz, sharros yomg‘ir quyib, hammayoq ivib ko‘pchib ketibdi.

Dehqonning etakdagi yeri xuddi ko‘lga o‘xsharkan. U joydagi sepilgan don butunlay chirib ketibdi, qumloqdagi bug‘doy esa yashnab bo‘y cho‘zibdi. Dehqon qumloqdan barakali hosil ko‘taribdi.

Qo‘ni-qo‘shnilar endi kalaka qilib kulmay qo‘yishibdi, ko‘ngillariga kulgi ham sig‘may qolibdi. Koranda ob-havo qanday kelishini qayoqdan bilarkin-a? — deb bir-birlaridan so‘rarkan ular.

Uchinchi yil kuz tunlarining birida yigit botqoqlikdan qumloqqa balchiq, qumloqdan botqoqqa esa qum tashiy boshlabdi. Natijada, anchagina yer o‘g‘itli tuproqqa aylanib, anchagina yer botqoqlikdan chegirib olinibdi. Endi dehqonning shudgori keng, ekin eksa bo‘larkan. Yeng shimarib ishga kirishish qolibdi, xolos.

Haligi ishlar odam bolasining qo‘lidan kelmasligi hammaga ayon ekan. Ertalab uyqudan turgan dehqon korandaning bajargan ishini ko‘rib, asta ko‘kragiga tupirib qo‘yarkan-da, yigitdan hech narsa so‘rab-surishtirib o‘tirmas ekan. Xizmatlaridan pana-panalab xavotir bilan uni kuzata boshlabdi.

Koranda bo‘lsa bu orada lallayib o‘tirmay suli, arpa sepibdi, kartoshka ekibdi. Karam bilan no‘xat uchun ham yer yetarli ekan. Kuzda bir dunyo hosil ko‘tarilibdi.

Dehqonning ombori-u qaznoqlari limmo-lim donga to‘libdi. Qo‘ni-qo‘shnilar odatdagiday dehqonni hamon Sho‘rpeshona deya atashsa ham, aslida bu laqab sirayam unga to‘g‘ri kelmas ekan. Kiyim-boshi bashang, yuzlari silliqlashib, qirmizi tusga kirganmish. Xotini bilan bolalari ham du- moqlari choq, doim shod-xurram ekan.

Kun ketidan kun, oy ketidan oy o‘tib, uchinchi yil ham oxirlab qolibdi.

Oydin sent.abr tuni cho‘kibdi. Baland osmondagи oy yerga mo‘l-ko‘l nur sochganidan, oqshom shu daraja nurafshon ekanki, hatto yerda yotgan ignani ham ko‘rsa bo‘larkan.

Koranda yarim tunda eshik tagiga chiqibdi-da bir depsinib Qora Alvastiga aylanib, botqoqlik sultanati sari yo‘rtib ketibdi.

Botqoqlikdagi majnuntol va oqtollar, archazoru qamishzorlar hamda baqato‘nlar makonida shod-xurramlik avjida, bazmi jamshid qizigandan qizib yotgan ekan. Chor-atrofdan to‘plangan ins-jinslar raqs tushib sakrar, qiychuv qilib o‘mbaloq oshib, har qaysisi o‘z hunarini ko‘rsatarkan. Hammasining boshida otash chambarakmish.

Suvjin chirigan to‘nka ustida surnay chalib o‘tirar, baqasimon barmoqlarini chaqqon harakatlantirib, kumush oy husniga mahliyo bo‘larmish. Uning qarshisiga kelib to‘xtagan Qora Alvasti yer baravar ta’zim bajo keltirib, tilga kiribdi:

-Mana, huzuringizga qaytib keldim! Xizmatimni ado etdim. Uch yil mobaynida dehqonga sidqidildan korandalik qildim.

-Unday bo‘lsa, kel, davramizga qo‘shil! Oy botib, sharqdan oftob mo‘ralagunga qadar raqs tush.

Ammo Qora Alvasti turgan joyidan jilmay bosh qashir, gavdasining og‘irligini u oyog‘idan bu oyog‘iga tashlab taraddudlanarkan.

-Nimadir demoqchimisan tag‘in? — so‘rabdi Suvjin.

-Hazrati sulton! Dehqonga bechoralikdan qutulishda ko‘maklashdim. O‘margan nonimni o‘n baravar qilib qaytardim unga.

-Xo‘sh, yashasa nima qipti?

-Ketar jafosi picha kalaka qilmoqchiydim uni.

-Ehtiyot bo‘l, qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarma-ya tag‘in.

-Xotiringiz jam bo‘lsin!

Suvjin ko‘m-ko‘k panjalari bilan chapak chalib, chiyildoq ovozda qichqiribdi:

-Hoy, ins-jinslar! Qani, bu yoqqa kelinglar- chi!

Botqoqlikdagi jami ins-jinslar darhol chirik to‘nka atrofiga to‘planishibdi. Ular bo‘yinlarini cho‘zib, sultonlari ne amr qilishini mahtal bo‘lib kuta boshlashibdi.

Suvjin gap nimadaligini bayon etibdi.

-Qora Alvasti, dehqonni kalaka qilishga ruxsat et, sulton! Ruxsat et! — chug‘urlashibdi ins-jinslar.

Suvjin ko‘m-ko‘k tizzalariga shapatiliab, qarorini aytibdi.

-Bo‘pti! Sizlar aytgancha bo‘lsa bo‘la qolsin! Axir biz ins-jinslarmiz-ku! Odamlarga ozor bermoq uchun yaralganmiz. Mayli, Qora Alvasti, niyatining amalga oshiraver. Faqat bizlarga isnod keltirmasang, bas!

Qora Alvastining ko‘zлari por-por yona boshlabdi.

-Xotirjam bo‘linglar! Isnodga qo‘yrnayman sizlarni!

Qora Alvasti qavmlari davrasida tongga dovur miriqib shod-xurramlik qilibdi. Raqs tushib, qo‘shiq aytibdi. Osmonning sharq ufqi qirmizi tus ola boshlagach, bir depsinibdi-da, yigit qiyofasiga kirib, to‘ppa-to‘g‘ri dehqonning xonadoni tomon yo‘rtibdi.

Dehqon bo‘lsa hech narsadan bexabar mast uyquda yotgan ekan. Tong otgach, koranda dehqonga shunday debdi:

-Sizga sidqidildan xizmat qildim, xo‘jayin, evaziga hech narsa so‘ramadim. Mana endi hisob- kitob qilaylik-da, men yo‘limga ravona bo‘lay.

Dehqon xizmatkoridan qutulish imkoniyati tug‘ilganini eshitib, boshi osmonga yetibdi.

-Barakalla senga, yigit, yo‘g‘imni bor qilding. Qani, ayt, qancha to‘lashim kerak?

-Ozgina suli bersangiz, bas.

Dehqon hang-mang bo‘lib qolibdi:

-Sulini nima qilasan? Yelkalab ketolmaysan- ku axir?

Koranda kulib javob qaytaribdi:

-Sulini pechka yoniga uyib qo‘ying-da, doshqozon bering. Sulini qaynataman.

-Suli qaynataman? Keyin-chi?

-Keyinini o‘sanda bilasiz.

Shunday qilib yigit ishga kirishib ketibdi. Doshqozonga xo‘roz qichqirig‘i borib yetmagan buloqdan suv keltirib quyibdi. So‘ng sulini aralashtirib, qorib qaynataveribdi-qaynataveribdi, bu orada hech kimni doshqozon oldiga qo‘ymabdi.

Oradan biroz vaqt o‘tgach, koranda dehqonni dasturxonga taklif etibdi. Stol ustida bir shisha bo‘lib, shishada zilol suvday tiniq suyuqlik bor ekan, ta’mi nihoyatda o‘tkir, naq dimoqni yorguday ekan.

-Nima bu? — so‘rabdi dehqon.

Koranda oppoq tishlarini ko‘rsatib irjaygancha javob qaytarbdi:

-Shunday bir ichimlik.

-Umrim bino bo‘lib bunday ichimlik ko‘rmaganman: na kvas, na asal, na pivoga o‘xshaydi!

-Qarab bilib bo‘lmaydi. Yaxshisi, tatib ko‘rish kerak.

Ichimlikdan ozgina tatib ko‘rib dehqon tili achishib, aftini burishtiribdi.

-Ko‘proq ichish kerak, — maslahat beribdi yigit.

Dehqon ichimlikdan bir-ikki ho‘plabdi-da, qalqib ketibdi.

-Tuf-e, zahri qotil-ku!

Korandaning hafsalasi pir bo‘libdi: nahotki dehqon hazilni tushunmagan bo‘lsa?

-Ma’qul bo‘lmadi shekilli-a? Ichimligimning xosiyati ta’mida emas, iltimos, xo‘jayin, yana bir ho‘plab ko‘ring!

Dehqon ichimlikdan ketma-ket ikki stakan ichib yuboribdi. So‘ng boshi guvillab, uy ichi gir aylanayotganday bo‘libdi.

Dehqonning nazarida halizamon devor ag‘darilib, uni ezib tashlaydiganday tuyulibdi. Tikka turay desa, oyoqlari ixtiyoriga bo‘ysinmasmish. Tili ham aylanmay qolibdi. Koranda bo‘lsa qah-qah kulib dehqonga qaragan ekan, uning etlarigacha jimirlab ketibdi. Shundan so‘ng dehqon uch yildan beri korandalik qilib kelayotgan yigit kimligini anglab, alamdan uchinchi stakanni ham ko‘tarib yuboribdi-da, shilq etib yerga ag‘darilibdi.

Qora Alvasti bu holatdan rohatlanib kula-kula ichimlikning qolganini boshqa shishalarga quyib, derazaga sakrab chiqibdi-da, makoni tomon yelib ketibdi.

Dehqon o‘sha yotganicha kechgacha qimir etmabdi, uyg‘onganida esa dili xira, dunyo ko‘ziga qorong‘i bo‘lib ko‘rinibdi. Stoldagi shishalarga ko‘zi tushib, beixtiyor shishalar tomon intilibdi. U qo‘ni-qo‘shnilarni ham taklif etib, tun bo‘yi alvastining zahri qotilidan miriqib ichishibdi.

O‘sha-o‘sha dehqonlar kambag‘allahib, omadlari qaytib, qo‘llari ishga bormay qo‘ygan ekan. Har kuni kechasi bilan ichkilikbozlik qilib, ertalab boshi zilday og‘rigan odamning qanday qilib ishi yurishadi deysiz.

Shu taxlit dehqon o‘sha-o‘sha sho‘rpeshona bo‘lib qolibdi: yey desa noni yo‘q, qaynatay desa eti yo‘q.

Qora Alvasti dehqon boshiga ana shunday qora kun solgan ekan.